Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar
O‘quv modul	3.3. Matematikaning muayyan bo‘limlarini o‘qitish metodikasi
Mavzu	Nisbat va proporsiyalarni o‘qitish metodikasi
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarning nisbat va proporsiyalarni o‘qitish metodikasi mavzusida innovatsion yondashuvlar haqida nazariy va amaliy bilimlarini boyitish. • O‘qituvchilarning hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligi bo‘yicha fikr almashish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli savol orqali mavzuga kirish;	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	- Nisbat va proporsiyalar mavzusini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni tushuntirish;	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	4-7- slaydlar	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.

	- Interfaol metodlarning mavzuga qo‘llanilishi - Slaydlar bilan tushuntirish				
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish;	25	Guruhlarda ishlash	8-12-slaydlar 2-ilova	O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	20	Suhbat, muhokama, tahlil		O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	13-slayd 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	14-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova

Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi:

Nisbat va proporsiya mavzularini o’qitishda samarali bo’lishi uchun qo’llanadigan qanday metod va vositalarni afzal deb bilasiz? Nima uchun?

2-ilova

Tinglovchilar 5 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi mavzular bo‘yicha texnologik xarita ishlab chiqiladi.

1-guruh: Teng kuchli nisbatlar;

2-guruh: Berilgan miqdor va nisbatga ko’ra boshqa miqdorni topish;

3-guruh: Berilgan jami miqdor va nisbatga ko’ra uning qismlarini topish;

4-guruh: Ikkita miqdorning nisbatiga doir matnli masalalar;

5-guruh: Uchta miqdorning nisbati;

3-ilova

Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?.

01 Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

02 Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?

03 Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?